International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

**Aziza SANGILOVA**
*O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

# AKSIYADORLAR BILAN MOLIYAVIY MUNOSABATLAR ILG‘OR XORIJ TAJRIBALARI

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada dividend siyosatini shakllantirishda xalqaro tajribalar tahlil qilinib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda amal qilayotgan yondashuvlar solishtirildi. Tadqiqotda AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Kanada, Janubiy Koreya va Turkiya kabi mamlakatlarning korporativ boshqaruv tizimlari hamda dividend siyosati modellari o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati kompaniya qiymatini oshirish va aksiyadorlar ishonchini mustahkamlashning strategik vositasi sifatida talqin etiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa davlat ishtirokidagi kompaniyalar orqali markazlashgan yoki aralash yondashuvdan foydalanadi. O‘zbekiston uchun xalqaro tajribalarni milliy xususiyatlarga moslashtirish, dividend siyosatini prognoz qilinadigan, barqaror va shaffof mexanizm sifatida shakllantirish zarurligi asoslab berildi.

**Kalit so‘zlar:** dividend siyosati, aksiyadorlik jamiyatlari, korporativ boshqaruv, xalqaro tajriba, davlat ishtiroki, moliyaviy barqarorlik, investitsion jozibadorlik.

# ADVANCED FOREIGN EXPERIENCES IN FINANCIAL RELATIONS WITH SHAREHOLDERS

**Abstract:** This article analyzes international approaches to shaping effective dividend policy, comparing practices across developed and developing countries. The study examines the corporate governance systems and dividend models of the United States, the United Kingdom, Japan, Germany, Canada, South Korea, and Turkey. The findings show that in developed economies, dividend policy serves as a strategic tool for increasing company value and strengthening shareholder trust. Developing countries, in contrast, often apply centralized or mixed approaches with state involvement. For Uzbekistan, the paper highlights the need to adapt global practices to national conditions, ensuring that dividend policy becomes a stable, transparent, and predictable mechanism of corporate governance.

**Keywords:** dividend policy, joint-stock companies, corporate governance, international experience, state participation, financial stability, investment attractiveness.

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish, fond bozorida barqaror o‘sishni ta’minlash hamda korporativ moliyaviy boshqaruvni xalqaro standartlarga moslashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar aksiyadorlik jamiyatlarining ochiqligi, samaradorligi va investorlar uchun jozibadorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ularning moliyaviy siyosati, xususan, dividend siyosatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Mazkur yo‘nalishdagi huquqiy asoslar, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

[1], 2020-yil 27-oktyabrdagi PF–6096-sonli “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni [2], 2022-yil 8-apreldagi PF–101-sonli “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi Farmoni [3], shuningdek, 2023-yil 2-sentabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [4] va 2023-yil 24-martdagi PQ–101-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida [5] o‘z ifodasini topgan. Ushbu hujjatlar kapital bozorini chuqur isloh qilish, aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish va xususiy sektor faoliyatini kengaytirish orqali iqtisodiyotda barqaror o‘sish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda dividend siyosati va aksiyadorlar bilan axborot siyosatini takomillashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlarining shaffofligini oshirish, ularning faoliyatini xalqaro talablarga asosan yuritish hamda investorlar bilan samarali kommunikatsiya mexanizmlarini joriy etish orqali milliy kapital bozorining raqobatbardoshligini ta’minlash mumkin. Bunda global tajribani o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda korporativ boshqaruvning ajralmas qismi sifatida dividend siyosati nafaqat foyda taqsimoti masalasini, balki kompaniya va investorlar o‘rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlashni ham qamrab oladi. Investorlar bilan ochiq axborot siyosati yuritish, raqamli kommunikatsiya kanallarini kengaytirish, muntazam hisobotlarni e’lon qilish va korporativ etika tamoyillariga rioya etish kompaniyaning bozor qadri va kapitallashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, O‘zbekiston sharoitida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy amaliyotga moslashtirish, ayniqsa, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida dividend va axborot siyosatini takomillashtirish orqali investorlar ishonchini oshirish hamda kapital bozorining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

## Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda dividend siyosati va korporativ boshqaruv o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilib, bu boradagi ilmiy qarashlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Mohapatra va Panda tomonidan o‘tkazilgan tizimli tahlil so‘nggi yigirma yil davomida e’lon qilingan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirgan bo‘lib, ularning xulosalariga ko‘ra, korporativ boshqaruv sifati yuqori bo‘lgan kompaniyalar odatda

dividend to‘lovlarini ko‘proq amalga oshiradi, bu esa investor ishonchini mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi [6]. Mualliflar rivojlanayotgan bozorlar bo‘yicha tadqiqotlarning yetarlicha olib borilmaganligini qayd etadi, bu esa O‘zbekiston sharoitida mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Davlat ishtirokidagi kompaniyalarda dividend siyosatini shakllantirishga oid muhim xulosalarni Ben-Nasr taqdim etadi. U 43 mamlakatda yangi xususiylashtirilgan korxonalar misolida o‘tkazgan tadqiqotida davlat ulushi yuqori bo‘lgan kompaniyalar dividend to‘lashga kamroq moyillik bildiradi degan xulosaga keladi [7]. Bu bog‘liqlik ayniqsa korporativ boshqaruv tizimi sust rivojlangan mamlakatlarda kuchliroq namoyon bo‘lishi aniqlangan. Bunday natijalar O‘zbekiston uchun dolzarb, chunki mamlakatda davlat ulushi saqlanib qolgan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida dividend siyosatini tartibga solish jarayoni hali to‘liq institutsionallashtirilmagan. Shu jihatdan Ben-Nasrning tadqiqoti agentlik muammosi, ya’ni davlat manfaatlari bilan xususiy aksiyadorlar manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarni tahlil qilishda nazariy asos bo‘la oladi.

Dividend siyosati nafaqat foydani taqsimlash vositasi, balki axborot shaffofligini ta’minlovchi mexanizm sifatida ham qaraladi. Misrda o‘tkazilgan El-Deeb va Allam tadqiqoti bunga yorqin misoldir. Mualliflar risk to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish (corporate risk disclosure) va dividend siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, dividend siyosati bu aloqani kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishini aniqlagan [8]. Boshqacha aytganda, dividend siyosati kompaniya tomonidan oshkor etilgan axborotga ishonchlilik darajasini oshiradi, bu esa korporativ boshqaruvning muhim signal berish funksiyasini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida ham dividend siyosatini shaffof axborot siyosati bilan uyg‘unlashtirish investorlar ishonchini oshirishda muhim strategik yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlardan biri — Pokiston tajribasida Abdul Hameed va hamkorlari korporativ boshqaruv atributlarining dividend siyosatiga ta’sirini empirik tahlil qilib, kutilganidan farqli natijalarni olgan. Ularning tadqiqoti natijasida mustaqil direktorlar va kuzatuv kengashi mavjudligi ba’zi hollarda dividend to‘lovlarini kamaytirishi mumkinligi aniqlangan [9]. Bu holat siyosiy aloqalar va mulkchilik konsentratsiyasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Demak, korporativ boshqaruv mexanizmlari har doim ham dividend siyosatini kuchaytiruvchi omil bo‘lavermaydi, balki mamlakatdagi institutsional muhit va siyosiy barqarorlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bank sektori misolida esa Sbai egalik tuzilmasi (ownership structure) va dividend siyosati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, konsentratsiyalashgan egalik shakli, ya’ni yirik aksiyadorlar mavjud bo‘lgan holatlarda dividend to‘lovlari kamayishi, biroq xususiy yoki xorijiy egalikda bo‘lgan banklarda esa aksincha,

dividend siyosati nisbatan faolroq amalga oshirilishi aniqlangan [10]. Ushbu natijalar sektorlararo farqlarni, ayniqsa moliya sohasida dividend siyosatini belgilovchi omillarni chuqurroq tahlil qilish zaruratini ko‘rsatadi.

## Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida iqtisodiy tahlilning klassik usullari — abstraksiya, induksiya va deduksiya yondashuvlari qo‘llanildi. Abstraksiya usuli xorijiy va mahalliy tajribalarda dividend siyosati va axborot siyosatini shakllantirish jarayonida mavjud bo‘lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, shuningdek, muayyan mamlakatlar misolida ularning nazariy asoslarini aniqlash imkonini berdi. Induksiya usuli esa ilgari o‘rganilgan empirik tadqiqotlar, kompaniyalar tajribasi va ilmiy natijalar asosida umumlashtirilgan xulosalarni shakllantirish uchun xizmat qildi. Shu orqali, ayrim rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosatining axborot shaffofligi bilan bog‘liqligini tahlil qilish orqali, ushbu mexanizmning samarali ishlashiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Deduksiya usuli, o‘z navbatida, xorijiy tajribada shakllangan nazariy model va tamoyillarni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etish, ularni milliy korporativ boshqaruv tizimi bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuvlar birgalikda dividend siyosatini samarali shakllantirishda axborot siyosatining o‘rni, shaffoflik va ishonchni oshirish mexanizmlarini aniqlashda muhim ilmiy asos yaratdi.

## Tahlil va natijalar

Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida dividend siyosati va axborot ochiqligi kompaniyaning investitsion jozibadorligi hamda bozor ishonchliligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. So‘nggi yillarda global iqtisodiy integratsiya va kapital bozorlarining raqobat muhiti kuchaygani sari, aksiyadorlik jamiyatlarining dividend siyosatini shakllantirishda xalqaro yondashuvlar va standartlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy davlatlar tajribasining o‘rganilishi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ilmiy ahamiyatga ega.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati korporativ manfaatlar, bozor intizomi va investorlarga bo‘lgan axborot shaffofligi tamoyillari asosida shakllantiriladi. Shu bilan birga, davlatning ushbu jarayondagi ishtiroki turli darajada namoyon bo‘ladi, ba’zi mamlakatlarda bu siyosat korxona mustaqilligi tamoyiliga tayanadi, boshqalarida esa davlat ulushi mavjud kompaniyalar uchun yagona me’yoriy yondashuvlar belgilanadi. Aynan ushbu tafovutlar dividend siyosatining iqtisodiy barqarorlik, korporativ boshqaruv sifati va aksiyadorlar manfaatlariga ta’sirini tahlil qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025




**1-rasm. Davlatning dividend siyosatini shakllantirishdagi yondashuvlari**

Mazkur rasmda davlat ishtirokidagi kompaniyalarda dividend siyosatini shakllantirishda hukumatning ishtirok darajasiga ko‘ra mamlakatlarning tasnifi aks ettirilgan. Umuman olganda, mamlakatlar ikki asosiy toifaga ajratiladi: dividend siyosatini davlat darajasida markazlashmagan tarzda amalga oshiradigan mamlakatlar hamda bu siyosatni markazlashtirilgan me’yorlar asosida belgilaydigan mamlakatlar.

Birinchi toifaga kiruvchi davlatlarda yagona davlat darajasida dividend siyosatini tartibga soluvchi huquqiy asos mavjud emas. Bu mamlakatlarda dividend to‘lovlari bo‘yicha qarorlar har bir kompaniyaning o‘zida, ularning moliyaviy holati, strategik maqsadlari va ishlab chiqarish natijalariga tayanilgan holda qabul qilinadi. AQSh, Kanada, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Germaniya shular jumlasidandir. Ularning tajribasida davlat ulushi mavjud kompaniyalarga moliyaviy siyosatni belgilash, foyda taqsimotini rejalashtirish hamda aksiyadorlar bilan munosabatlarni yuritishda yuqori darajadagi mustaqillik beriladi.

Ikkinchi toifaga esa dividend siyosatini shakllantirishda davlatning bevosita ishtiroki mavjud bo‘lgan mamlakatlar kiradi. Bu guruhda uch xil yondashuv kuzatiladi:

- **Markazlashgan model.** Avstraliya va Yangi Zelandiya singari mamlakatlarda hukumat dividend siyosatini qat’iy normativ hujjatlar yoki yagona

ko‘rsatmalar orqali tartibga soladi. Bunda barcha davlat kompaniyalari uchun bir xil qoidalar amal qiladi, bu esa byudjet daromadlarini boshqarishda barqarorlikni ta’minlaydi.

- **Aralash model.** Shvetsiya tajribasida davlat dividend siyosatining umumiy strategik yo‘nalishlarini belgilab beradi, biroq kompaniyalarga o‘z faoliyat xususiyatlariga ko‘ra siyosatni moslashtirish imkonini qoldiradi. Bunday tizim davlat manfaatlari va korporativ mustaqillik o‘rtasida muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.
- **Markazlashmagan model.** Finlyandiya va Norvegiya misolida dividend siyosati kompaniya darajasida ishlab chiqiladi, biroq davlat idoralari tomonidan muvofiqlashtiriladi va nazorat qilinadi. Bu yondashuv har bir kompaniyaning o‘ziga xos iqtisodiy holatini inobatga olgan holda umumiy davlat siyosati doirasida harakat qilish imkonini beradi.

Davlat ishtirokidagi kompaniyalarda dividend siyosatini shakllantirishda mamlakatlar o‘rtasida yondashuvlarning xilma-xilligi mavjud, to‘liq avtonom qaror qabul qilish tizimidan tortib, daromadni taqsimlashning qat’iy markazlashgan modellarigacha.

AQShda korporativ boshqaruv tizimi o‘zining yuqori darajadagi avtonomligi va markazlashmagan tuzilmasi bilan ajralib turadi. Davlat ishtirokidagi korxonalarga nisbatan yagona davlat miqyosidagi dividend siyosati mavjud emas — har bir kompaniya o‘zining biznes modeli, aksiyadorlar ehtiyojlari va bozor kon’yunkturasidan kelib chiqib mustaqil siyosat ishlab chiqadi. AQShda kompaniyalarni boshqarish qoidalari va aksiyadorlar huquqlari shtatlar darajasida qabul qilinadigan korporativ qonunlarga asoslanadi, bu esa Yevropaning ko‘plab mamlakatlarida amal qiluvchi markazlashgan tizimdan tubdan farq qiladi.

Davlat ishtirokidagi kompaniyalar boshqaruvida hukumatning roli nihoyatda cheklangan u, asosan, aksiyador yoki nazorat qiluvchi organ sifatida ishtirok etadi, biroq boshqaruv jarayonlariga aralashmaydi. Bu holat korxonalar uchun bozor muhitidagi o‘zgarishlarga tezkor moslashish imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga, huquqiy aniqlik va shaffoflikni ta’minlashni talab qiladi. Aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish asosan ustav, ichki korporativ bitimlar va mulk huquqlarini tartibga soluvchi hujjatlar orqali amalga oshiriladi.

AQSh korporatsiyalarida mulkchilik tuzilmasi qat’iy iyerarxik tartibda tashkil etilgan, avvalo obligatsiyalar egalari, keyin imtiyozli aksiyalar egalari, so‘ng esa oddiy aksiyadorlar o‘z huquqlarini amalga oshiradilar. Oddiy aksiyadorlar kompaniya boshqaruvida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lib, ular direktorlar kengashini saylash, ustavga o‘zgartirish kiritish, qo‘shilish yoki aktivlarni birlashtirishga oid qarorlarni tasdiqlash kabi masalalarda ovoz berish huquqiga ega. Shu bilan birga, ular eng katta moliyaviy riskni ham o‘z zimmalariga oladilar — kompaniya kasodga uchraganida ularning da’volari oxirgi o‘rinda ko‘rib chiqiladi.

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

AQShda eng mashhur korporativ yurisdiksiya — Delaver shtati hisoblanadi. Fortune 500 ro‘yxatidagi ko‘plab yirik kompaniyalar aynan shu shtatda ro‘yxatdan o‘tgan. Delaver korporativ qonunchiligi zamon talablariga mos ravishda tez-tez yangilanadi hamda investorlar uchun aniq, moslashuvchan va ishonchli huquqiy mexanizmlarni taqdim etadi. So‘nggi yillarda Delaver Korporativ qonuni (DGCL)ga kiritilgan o‘zgartirishlar aksiyadorlarning direktorlar faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirishga qaratilgan. Masalan, agar direktor aksiyadorlar ko‘pchiligining ishonchini yo‘qotsa, u lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Shuningdek, aksiyadorlar tomonidan ustavga kiritilgan o‘zgartirishlar endilikda direktorlar kengashi tomonidan bekor qilinmaydi [11].

Umuman olganda, AQSh korporativ boshqaruv modeli markazlashmagan, shaffof va huquqiy jihatdan mukammal tizimni ifodalaydi. Markaziy dividend siyosatining mavjud emasligi, aksincha, kompaniyalarning mas’uliyat va mustaqillik darajasini oshiradi. Investorlar huquqlari kuchli himoya ostida bo‘lib, korporativ intizom bozor mexanizmlari orqali tabiiy tarzda shakllanadi. Bu model kompaniyalardan ochiqlik, shaffoflik va mas’uliyatni, aksiyadorlardan esa yuqori darajadagi moliyaviy va huquqiy savodxonlikni talab etadi. Shunday yondashuv xususiy sektorni rivojlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va boshqaruvda erkinlik bilan samaradorlikni uyg‘unlashtirishga intilayotgan mamlakatlar uchun ibratli tajriba hisoblanadi.

AQSh kompaniyalari keng qo‘llaydigan Dividendlarni qayta investitsiya qilish dasturlari investorlar uchun ikki tomonlama foyda yaratadi, ular nafaqat muntazam daromad oladilar, balki dividendlar yordamida aksiyalarni avtomatik sotib olish orqali o‘z kapitalini oshirib boradilar. Shu tariqa, dividendlar nafaqat passiv daromad, balki kapital o‘sishining ham manbaiga aylanadi.

Shuningdek, AQShda dividend siyosati barqarorligini ta’minlashda “Dividend Aristokratlari” konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, S&P 500 indeksida 25 yil davomida dividendlarini uzluksiz oshirgan kompaniyalar alohida e’tirof etiladi. Bu kompaniyalar bozordagi o‘zgaruvchanlikka nisbatan bardoshliligi, past volatillik darajasi va yuqori investor ishonchi bilan ajralib turadi.

2024-yil holatiga ko‘ra, “Dividend Aristokratlari”ning o‘rtacha yillik daromadi 10,2%, bu esa umumiy S&P 500 kompaniyalarining o‘rtacha 9,6% ko‘rsatkichidan yuqoridir. Ayniqsa, 2008-yilgi inqiroz davrida ham ushbu kompaniyalar dividend to‘lovlarini qisqartirmagan, bu ularning moliyaviy intizomi va uzoq muddatli barqarorligidan dalolat beradi.

Dividendlarni qayta investitsiya qilish investorlar uchun sezilarli farqni yuzaga keltiradi. Masalan, agar 2005-yil 2-may kuni S&P 500 Dividend Aristocrats indeksiga 100 AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilgan bo‘lsa va barcha dividendlar reinvestitsiya qilinganida, 2025-yil 31-mart holatiga kelib sarmoya

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

729,57 dollargacha o‘sgan bo‘lardi. Aksincha, dividendlar naqd pul shaklida olingan holatda bu summa 537,5 dollar atrofida bo‘lishi mumkin edi. Bu esa reinvestitsiya amaliyotining murakkab foiz mexanizmi orqali kapitalning tezroq o‘sishini ta’minlashini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, AQShdagi kompaniyalar o‘rtacha yillik dividend o‘sishi 8,1% ni tashkil etadi, bu esa mamlakatdagi o‘rtacha inflyatsiya (2,6%) darajasidan deyarli uch baravar yuqori. Natijada, aksiyadorlarning real daromadlari faqat saqlanib qolmay, balki ortib boradi.

Bu yondashuv kompaniyalarning dividend siyosatini qisqa muddatli foyda olish vositasi sifatida emas, balki uzoq muddatli ishonchli korporativ hamkorlik modeli sifatida shakllantirayotganini ko‘rsatadi. Masalan, S&P 500 Dividend Aristocrats indeksiga kiruvchi 69 kompaniyaning 34 tasi 45 yildan ortiq, 17 tasi esa 50 yildan ko‘p vaqt davomida dividendlarini doimiy oshirib borgan. Hatto 9 kompaniya 60 yildan beri uzluksiz dividend hajmini kengaytirib kelmoqda.

Bu raqamlar dividend siyosatining AQShda korporativ boshqaruv madaniyatining bir qismi sifatida shakllanganini, investor ishonchini saqlash va kapital bozori barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilayotganini tasdiqlaydi [12].

**1-jadval**

**AQShdagi “Dividend Aristokratlari” kompaniyalarining dividend siyosati barqarorligi [13]**

| Ko‘rsatkich | Tavsif / Natija |
|---|---|
| **Indeks nomi** | S&P 500 Dividend Aristocrats |
| **Kiritilish mezoni** | Dividendlarni 25 yil yoki undan ortiq muddat davomida muntazam oshirib borish |
| **Umumiy kompaniyalar soni (2024)** | 69 ta |
| **45 yildan ortiq dividendlarini oshirib borgan kompaniyalar** | 34 ta |
| **50–54 yil davomida oshirib kelgan kompaniyalar** | 17 ta |
| **60 yil va undan ortiq oshirib borgan kompaniyalar** | 9 ta |
| **O‘rtacha yillik dividend o‘sishi** | 8,1 % |
| **O‘rtacha yillik daromad (2005–2023)** | 10,2 % |
| **O‘rtacha inflyatsiya (CPI)** | 2,6 % |

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025

| | |
|---|---|
| **DRIP dasturlari natijasida 20 yilda sarmoya o‘sishi** | 100 USD → 729,57 USD |
| **Reinvestitsiyasiz o‘sish (naqd dividend bilan)** | 100 USD → 537,5 USD |
| **Inqiroz davrida dividend qisqartirilgan holatlar** | Mavjud emas (2008-yilda ham barqaror to‘lovlar saqlangan) |

AQSh amaliyotida dividend siyosati oddiy moliyaviy majburiyat sifatida emas, balki kompaniyaning uzoq muddatli strategik barqarorligi va ishonchliligini ifodalovchi muhim indikator sifatida qaraladi. Dividend to‘lovlarini izchil oshirib borish orqali kompaniyalar o‘z moliyaviy qudratini namoyon etadi, shu bilan birga, aksiyadorlar bilan mustahkam va uzoq muddatli ishonch asosidagi munosabatlarni shakllantiradi. Bu holat investorlarning kompaniya istiqboliga bo‘lgan ishonchini kuchaytirib, aksiyalarga talabni oshiradi hamda korxonaning kapital bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlaydi.

Ushbu tamoyillarni rivojlanayotgan iqtisodiyotlarga, jumladan O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga tatbiq etish orqali aksiyadorlar bilan moliyaviy munosabatlar tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Dividend siyosatining aniq rejalashtirilgan va prognozlanadigan shaklini yaratish, to‘lovlarning barqarorligini ta’minlash va ularni bosqichma-bosqich oshirib borish aksiyadorlarning kompaniyaga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, sarmoyadorlik muhiti jozibadorligini oshiradi.

Bunday yondashuv korporativ boshqaruvda ochiqlik, shaffoflik va javobgarlik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada, dividend siyosati nafaqat aksiyadorlar manfaatini himoya qiluvchi moliyaviy vosita, balki mamlakat ichki kapital bozorini faollashtiruvchi, investitsiyalar oqimini kuchaytiruvchi va umumiy iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi strategik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

AQSh modelidan farqli ravishda, Avstraliya davlat ishtirokidagi kompaniyalarda dividend siyosatini markaziy darajada muvofiqlashtiruvchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu tizimda davlatning korporativ boshqaruv jarayonlariga aralashuvi nisbatan faolroq bo‘lib, moliyaviy oqimlar va aksiyadorlar manfaatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan mexanizmlar ancha puxta yo‘lga qo‘yilgan. Shu bilan birga, Avstraliya modeli o‘zining ochiqlik, javobgarlik va aksiyadorlar bilan samarali kommunikatsiyasi bilan ajralib turadi.

Avstraliyada korporativ boshqaruvning huquqiy asosini 2001-yilda qabul qilingan “Korporatsiyalar to‘g‘risida”gi qonun (Corporations Act 2001) tashkil etadi. Ushbu hujjat aksiyadorlik jamiyatlarining ichki faoliyatini, direktorlar vakolatlarini hamda aksiyadorlarning huquqlarini batafsil belgilab beradi.

International Journal of Finance and Digitalization
www.ijfd.uz
ISSN: 2181-3957
Vol. 4 Issue 04, 2025




**2-rasm. Avstraliyada aksiyadorlarning kafolatlangan huquqlari [14]**

Avstraliya korporativ boshqaruv amaliyotida shaffoflik va ochiqlik markaziy o‘rinni egallaydi. Kompaniyalar Avstraliya Qiymatli qog‘ozlar va investitsiyalar bo‘yicha komissiyasi (ASIC) tomonidan belgilangan hisobot talablari asosida faoliyat yuritadi. Ushbu tizim investorlar uchun axborot tengligini ta’minlab, bozor ishonchliligini mustahkamlaydi. Bundan tashqari, minoritar aksiyadorlar kompaniya manfaatlariga zid qarorlar yoki qonunbuzarlik holatlari aniqlansa, rahbariyatga nisbatan sud orqali da’vo kiritish huquqiga ega.

Umuman olganda, Avstraliya modeli korporativ boshqaruvda aniq huquqiy me’yorlar, ochiqlik va davlat ishtirokidagi korxonalarda moslashuvchan dividend siyosatini o‘zida mujassam etgan. Ushbu tajriba institutsional ishonchni mustahkamlash, investorlar manfaatlarini himoya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashni maqsad qilgan mamlakatlar uchun samarali amaliy namuna hisoblanadi.

## Xulosa

Dividend siyosati aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy boshqaruvi tizimida muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u kompaniyaning investitsion jozibadorligini, kapital bozoridagi ishonchlilik darajasini hamda aksiyadorlar bilan o‘zaro moliyaviy munosabatlarning barqarorligini belgilaydi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, dividend siyosatining samaradorligi faqat moliyaviy natijalarga emas, balki korporativ boshqaruv sifati, aksiyadorlar huquqlarining himoyasi, soliqqa oid siyosat hamda bozor infratuzilmasining rivojlanishiga ham bevosita bog‘liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida, xususan AQSh, Buyuk Britaniya va Yaponiya misolida, dividend siyosati kompaniya qiymatini oshirishning muhim vositasi sifatida qaraladi. Ushbu davlatlarda dividend to‘lovlari korporativ shaffoflik, foyda taqsimoti va investorlarga bo‘lgan ishonch darajasi bilan uzviy bog‘langan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa barqaror dividend siyosatini qo‘llash orqali kapital bozorlarida aksiyadorlarning uzoq muddatli ishtirokini rag‘batlantirish amaliyoti keng yoyilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, Janubiy Koreya, Turkiya va Malayziya tajribasi, dividend siyosatini davlat ishtirokidagi kompaniyalar orqali muvozanatli tartibga solish, korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish hamda dividend to‘lovlari barqarorligini ta’minlashda davlatning yo‘naltiruvchi roli mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida esa samarali dividend siyosatini shakllantirish uchun xalqaro tajribalarni milliy xususiyatlarga moslashtirish zarur. Jumladan, kompaniyalarning sof foydasini oshirish orqali dividend bazasini kengaytirish, aksiyadorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan to‘lov tizimini joriy etish, davlat ulushi mavjud jamiyatlarda dividend siyosatini institutsional darajada tartibga solish, hamda moliyaviy shaffoflikni oshirish muhim omillardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro amaliyot dividend siyosatini samarali shakllantirishda foyda taqsimoti mexanizmlarining shaffofligi, aksiyadorlar ishonchini mustahkamlash va kapital bozorining barqaror ishlashi kabi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi. Shu bois, O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro yondashuvlarni ilmiy asosda qo‘llash, ularni milliy tartibga solish mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish dividend siyosatining strategik barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.10.2020 yildagi PF-6096-son Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni

**3.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.04.2022 yildagi PF-101-sonTadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risidagi farmoni

**4.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.09.2023 yildagi PQ-291-son “Kapital bozorini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

**5.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2023 yildagi PQ–101-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori

**6.** Mohapatra D., Panda P. Impact of corporate governance on dividend policy: A systematic literature review of last two decades // Cogent Business & Management. – 2022. – Vol. 9, No. 1. – DOI: 10.1080/23311975.2022.2114308.

**7.** Ben-Nasr H. Government Ownership and Dividend Policy: Evidence from Newly Privatized Firms // Journal of Business Finance & Accounting. – 2015. – Vol. 42, No. 5–6. – P. 665–704.

**8.** El-Deeb M. S., Allam M. F. The moderating effect of dividend policy on the relationship between the corporate risk disclosure and firm value: evidence from Egypt // Future Business Journal. – 2024. – DOI: 10.1186/s43093-024-00311-x.

**9.** Hameed A., Hussain F. Z., Naheed K., Shahid M. S. Impact of Corporate Governance on Dividend Policy: Evidence from Pakistan // Sustainable Business and Society in Emerging Economies. – 2021. – Vol. 3, No. 3. – P. 353–366.

**10.** Sbai H. Ownership Structure and Bank Dividend Policies // MDPI Journals. – 2024.

**11.** Корпоративное управление США: акционеры Корпораций. URL: https://www.internationalwealth.info/offshore-company-formation/korporativnoe-upravlenie-ssha-akcionery-korporacij/

**12.** SP Global. (2024). Celebrating 20 Years of S&P 500 Dividend Aristocrats. Retrieved from https://www.spglobal.com/spdji/en/documents/education/education-celebrating-20-years-of-sp-500-dividend-aristocrats.pdf

**13.** S&P Dow Jones Indices LLC. Data as of Jan. 31, 2025. Past performance is no guarantee of future results. Chart is provided for illustrative purposes

**14.** Korporativ qonun 2001. – Parliament of Australia. URL: https://www.legislation.gov.au/Details/C2023C00196